

## **FIZIKA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODIK TAVSIYALAR.**

*Husniya Bekmurodova Faxriddin qizi*

*Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani 32- sonli umumiy o'rta ta'lim  
maktabining fizika fani o'qituvchisi*

*Norqobilov Muxtor Yusupovich*

*Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani 32- sonli umumiy o'rta ta'lim  
maktabining fizika fani o'qituvchisi*


**Annotatsiya:** Mamlakatimizda har bir ta'lim sohasi yangilanib bormoqda, shu bilan birga yangi darsliklar va darslikarga yangi mavzular qo'shiloqda. Bu esa o'qituvchi o'zining ustida tinimsiz mehnat qilishi kerak ekanligini anglatadi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, pedagog, o'quvchi, qiziqarli metod, formula, kubik, kadr.

Ko'pchilik o'quvchilarda fizika atamasini eshitishi bilan murakkab, tushunish qiyin bo'lgan fan degan tushuncha paydo bo'ladi. Ularda fizika faniga bo'lgan qiziqishni oshirish bu mahoratli va sabrli pedagogning qo'lida bo'ladi. U o'quvchiga qanchalik sodda va tushunarli, aniq va qiziqarli bo'lgan ma'lumotlarni bersa o'quvchilar o'zlari bilmagan holda bu fanga ipsiz bog'lanib qoladi. Avvalo o'quvchilarni fizika atamasi bilan tanishtish eng ma'qul ish. Lekin uni qiziqarli metod bilan tushuntirilsa maqsadga erishish osonroq bo'ladi. Bu borada o'zimning metodik tavsiyamni bermoqchiman. O'qituvchi darsni doskaga katta harflarda "FIZIKA" so'zini yozish bilan boshlaydi. Har bir harf uchun o'zlari biladigan tabiatda uchraydigan hodisalar, jarayonlarni yozishadi va bu atamalarga o'zlari ta'rif berishadi. Bu metod o'quvchining qanchalik fizikani bilishiga bo'lgan ishonchini oshiradi(1- rasm).



O'quvchilarning ko'pchiligida fizika faniga oid formula va birliklarini o'rganish va bir formuladan boshqasini keltirib chiqarish ko'nikmasi past ko'rsatgichda bo'ladi. Ularning bu ko'nikmasini rivojlantirish uchun yangi o'yin metodini tavsiya etaman. Formuladagi kattaliklar harflardan iborat. Bu harflarni katta kichik ko'rinishda kubikchalarga yozib chiqamiz, taminan 30- 40 ta kubikchalar kerak bo'ladi. Shu bilan birga kubiklarga matematik amallarni ham kiritish maqsadga muvofiq(kubiklarni turli ranglarda buyash o'yinni yanada qiziqarli qiladi). Dast avval o'qituvchi formulalarni doskaga yozadi yoki kichik varoq bo'laklariga yozib tarqatadi. O'quvchilar formulaning sxemasiga mos holda kubikdagi harflarni joylashtiradi. Namuna sifatida quydagi rasmlarni havola etaman(2-rasm).



Fizikani o'qitish va o'rgatishga doir metod va metodikalar juda ko'p. Faqat bir xil metodlarga bog'lanib qolmay eskilarini takomillashtirish va yangilarini yaratishga harakat qilish kerak. Hozirgi zamonda fan shiddat bilan rivojlanib

bormoqda. Shu bilan birga bolalarning dunyoqarashi va tasavvurlari ham kengaymoqda. Vatanimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish, kerakli kadr qilib yetishtirish biz pedagoglarning muhim vazifalarimizga kiradi. Prezidentimiz tomonidan bizga yaratilgan imkoniyatlar bizni yanada olg'a intilishimizga va bizga bildirilgan ishonchni oqlashimizga undaydi.

### **Adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. M. "Ijtimoiy- gumanitar fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda" nutqidan. 20.1.2021
2. Yo'ldoshev J., Usmonov S. A. Zamonaviy pedagogika texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T., 2008.
- 3.